

**ЎҚОʻЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY VA OʻRTA MAXSUS
TAʼLIM VAZIRLIGI**

AL – XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

402-guruh talabasi Xudayberganova Nargisaning

“Oʻrta maxsus kasb-hunar kollejlari oʻqituvchilarida kasbiy
zoʻriqishning yuzaga kelishidagi differentsial farqlar” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIYISHA

ILMIY RAHBAR:

ps.f.n.,katta oʻqituvchisi Nurullaeva B

TAQRIZCHI:

XVPKQTMOI dotsenti K.Sobirov

Urganch – 2012yil.

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası
Malakaviy bitiruv ishini tayyorlash bo'yicha topshiriq.

Talaba Xudyberganova Hargisa _____

1. Malakaviy bitiruv ish mavzusi: _Kasb-hunar kolleji o'qituvchilarida kasbiy zo'riqishni_yuzaga kelishidagi differentsial farqlar. _____

2. Pedagogika fakulteti Ilmiy kengashining «_31_» __oktabr 2011yil _____dagi __2-sonli bayonnoma bilan _____yig'ilishida muhokama qilinib, № URDU 01.12.11yil N184 TS1.

_____buyruq bilan tasdiqlangan.

3. Talabalarning tugallangan ishini topshirish muddati 19.05.2012 yil.

4 MBI uchun berilgan ma'lumotlar (masalan, maktab dasturi bo'limi, topshiriq va h)_ish rejasi tajriba sinov uchun topshiriqlar to'plami. _____

5. Malakaviy bitiruv ishi tarkibi va bo'limlarining qisqacha mazmuni:

a) Malakaviy bitiruv ishining nazariy qismi (ishlanadigan savollar ro'yxati va tajriba tadqiqotlarning yoritilish tartibi) _Psixologik tadqiqotlarda kasbiy zo'riqish masalalarini nazariy tahlili. _____

b) MBIning amaliy qismi ro'yxati _Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarida kasbiy zo'riqishni tajribada o'rganish. _____

v) yordamchi materiallar ro'yxati (testlar, diagrammalar, matritsalar, jadval, rasmlar va sxemalarx.k.)_Kasb-hunar kollejlari ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi,jadvallar. _____

g) pedagogik tajriba (yoki manbalar) bo'yicha yig'ilgan materiallar (manbalar, o'quvchilar ishlari, eksperiment) __anketa, so'rovnoma test_. _____

6. BMI bo'yicha konsultant (qaysi bo'lim bo'yicha ekanligi ko'rsatiladi) _____

7. Topshiriq berilgan vaqt _25.05.2011 yil. _____

Malakaviy bitiruv ishi kafedrada tasdiqlangan sana:

_18.05.2011yil._____

Kafedra mudiri:

dots.Sh.Ismailova

Ilmiy rahbar:

__Nurullayeva

B._____

Topshiriqni bajarish uchun «_25____» __may_____da qabul qildim.

Bitkazuvchi talaba:

_Xudayberganova

N._____

Malakaviy bitiruv ishi loyihasini bajarish

GRAFIGI

Malakaviy bitiruv ishi mavzusi: “O`rta maxsus kasb-hunar kollejlari o`qituvchilarida kasbiy zo`riqishning yuzaga kelishidagi differentsial farqlar”

№	Loyiha bosqichlarining nomi	Nazorat vaqti	Ish to`liq bajarilgan taqdirda kafedra mudiri va ilmiy rahbar imzosi bilan tasdiqlanadi	
			Kaf.mudiri	rahbar
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlash	18.05.11		
2	Malakaviy bitiruv ishi mavzusini olish va tadqiqot rejasini ishlab chiqish.	25.05.11		
3	Maxsus adabiyotlarni o`rganish, loyixa bo`yicha psixologik –pedagogik , metodik va amaliy materiallari yig`ilishi.	23.11.11 gacha		
4	Loyixa bo`yicha tajriba mazmuni, xajmi va tartibini aniqlashtirish.	07.12.11		
5	Tajriba ish (o`qish)larni tashkil qilish va o`tkazish sifati (maktab, kollej..)	12.01.12		
6	Malakaviy bitiruv ishi loyihasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash.	10.02.12		
7	Malakaviy bitiruv ishining elektron varianti loyixasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash.	03.02.12		
8	Barcha eskizlarni to`la tasdiqlash va malakaviy bitiruv ishi loyihasi nazariy va amaliy qismlari tasdiqlash.	31.03.12		
9	Malakaviy bitiruv ishi loyihasini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi.	20.04.12		
10	Kafedra mudiri va rahbar tomonidan tugallangan loyihani ko`rikdan o`tkazish.	5.05.12		
11	Tugallangan ishni malakaviy bitiruv ishi loyihasi rahbar xulosasi va uni himoyaga tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	19.05.12		

Izox: Reja bo`yicha xar bo`lim to`liq imzolangan taqdirdagina talabaga bitiruv malakaviy ishini himoya qilishga ruxsat beriladi.

Bitkazuvchi talaba nomi va imzosi: Xudayberganova Nargisa _____

Ilmiy rahbar nomi va imzosi: ps.f.n.,katta o`qituvchisi Nurullaeva B _____

Talaba Xudayberganova Nargisa
ning «Kasb-hunar kolleji o`qituvchilarida kasbiy zo`riqishni yuzaga kelishidagi
differentsial
farqlar

»
mavzusida bajargan malakaviy bitiruv ishi «Pedagogika va psixologiya»
kafedrasining «19 may» 2012 yil dagi yig'ilishida
muhoqama qilinib, Davlat Attestatsiya Komissiyasida himoya qilishga ruxsat
berildi. Bayonnoma № 10

Kafedra mudiri: Ismailova SH.

Malakaviy bitiruv
ishi rahbari: Nurullayeva B.

Kotib: Sharifzoda S.

Mundarija

Kirish

1 bob. Psixologik tadqiqotlarda kasbiy zo`riqish masalalarini nazariy tahlili.

1.1 Psixologiya fanida hissiy zo`riqish masalalarini yoritish.

1.2 Pedagoglarda kasbiy zo`riqish jarayonining rivojlanishi va namoyon bo`lishi.

2 bob. Kasb-hunar kollejlari o`qituvchilarida kasbiy zo`riqishni tajribada o`rganish.

2.1 O`qituvchilarda kasbiy zo`riqishdagi differentsial farqlarni psixologik tajribada o`rganish.

2.2 Kasb-hunar kolleji o`qituvchilari kasbiy zo`riqishdagi farqlarni namoyon bo`lishi.

Xulosa

Tavsiya

Adabiyotlar ro`yhati

Ilova

Kirish.

Kasb-hunar kolleji o`qituvchilarining kasbiy zo`riqishning differentsial farqlarni namoyon bo`lishi.

Inson salomatligi yuqori qiymatga ega bo`lgan individual va ijtimoiy qadriyatlardir. SHu nuqtainazardan kelib chiqib salomatlik psixologiyasi fanining diqqat markazidadir. Jamiyat va davlat ham inson tomonidan o`z sog`ligini asrashda katta rol o`ynaydi. O`zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov alohida ta`kidlashicha, "Bizning mamlakatimizda inson va uni salomatligiga qaratilayotgan yuksak e`tibor avvalambor shu sohada sarflanayotgan mablag` va investitsiyalarda o`z aksini topadi. Sog`likni saqlash uchun davlat buyudjetini 15,7%ni tashkil qiladi. Ko`rsatilayotgan e`tibor inson sog`ligini saqlashda psixologik omillarni ahamiyatin ham oshirmoqda. Mazkur davrga kelib nazariy psixologik bilimlarni amaliyotga tadbiq etish ehtiyoji yanada dolzarb bo`lib qoladi. Kasbiy zo`riqishni kelib chiqishi va profilaktikasini tizimli tashkil qilish albatta bu sohadagi inson o`rtasida kuzatiladigan differentsial farqlarni organish va yoritish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Bir vaqtda bir xil muassassada bir hil ijtimoiy, rasmiy, mamuriy va psixologik ta`sir ostida ishlab kelayotgan pedagoglarda kasbiy zo`riqishni namoyon bo`lishida katta farq kuzatiladi.

Buning o`zi tashhis korreksia profilaktika jarayonining kasbiy zo`riqishni kelib chiqishidagi differentsial farqlarni inobatga olgan holda tashkil qilish lozimligini ko`rsatmoqda. Differensial farq deganda individla o`rtasidagi temperamentdagi, intellektidagi, emotsional holatlardagi, jinsiy, kasbiy va hokazo mezonlarga bog`liq bo`lgan farqlar nazarda tutiladi. Pedagoglarda kasbiy zo`riqishni oldini olishda individual diferensial farqlardan kelib chiqqan holda amaliy yordam ko`rsatish faolyatini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz mustaqillik davrida barcha sohalarda katta yutuqlarga erishishi bilan bir qatorda jamiyatni rivojlanishi

yo`nalishlaridan biri bu xalqni salomatligini saqlash bo`lib qolgan.Insonyatning bosqichlarda salomatlikka katta ta`sir sifatida e`tirof etilga individual va ishtimoiy qadiryat sifatida etirof etilgan.Salomatlik inson hayoti faolyatini barcha jabhalarida tasir ko`rsatadi,shahsni ijtimoiy borliqqa optimal kirishni va o`ylagan rejalarini amalga oshirish uchun imkonyat yaratadi.Inson salomatligi masalalari ta`lim sohasidagi islohotlar bilan ham chambarchas bog`liq.Ta`lim sohasidagi bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “ni muvafaqqiyati ko`p jihatdan pedagog faoliyatiga ko`p jihatdan pedagog faoliyatiga uning kasbiy nufuzini oshirishga bog`liqdir.”Biz farzandlarimizni nafaqat jismoniy va ma`naviy sog`lom o`sishi balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo`lgan uyg`un rivojlangan insonlar bo`lib,21-asr talablariga to`liq javob beragigan barkamol avlod bo`lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkonyatlar va sharoitlarni yaratishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`yganmiz.[4,26bet]

Bu borada pedagoglarni samarali kasbiy faoliyatini ahamyati beqiyosdir.Pedagoglarni samarali kasbiy faolyati ko`pgina omillar tamonidan belgilab beriladi,mukammal kasbiy tayyorgarlik pedagogik tehnolo`giyalari erkin qo`llay olish,yuqori kompyuter savadxonligi,horijiy tillarni bilishi bilan bir qatorda individual kasbiy faoliyatini ruhiy sog`lom muvozanatni shahs sifatida olib bora olish qobiliyati ham nihoyatds muhim. Ko`pgina intellektual kamunikativ kasb vakillarida kasbiy zo`riqish holati kuzatishini e`tirof etish mumkin. Bular o`qituvchilar, shifokorlar,jurnalistlar,rahbarlar,ijtimoiy soha vakillariga,hususan pedagoglarga kuzatilayotgan kasbiy zo`riqishlarni o`rganish va tahlil qilish masalani dolzarbligini alohida etirof etish mumkin.Pedagoglarda kasbiy zo`riqish jarayonini vujudga kelishga turli omillar ta`sir ko`rsatadi. Ularni turlicha tasniflash mumkin bular;ijtimoiy ,psihologik va fiziologik omillardir. Kasbiy zo`riqishni chuqur tahlil qilish bu holatda bog`liq bo`lgan profilaktik,korreksion va konsultativ tadbirlarni samarali olib borish uchun sharoit yaratadi. Har bir inson alohida shahs va

individuallikka ega bo'lib, o'ziga hos takrorlanmas, uni boshqalardan ajratib turgan individual psixologik hususiyatlar mazmuniga egadir. Bular inson harakteri, temperamenti qobiliyatlari, temperametiga muvofiq holda nomoyon bo'ladigan neyrotizm, qo'zg'atuvchanlik kabi sifatlar va boshqalar. Bularni barchasi atrofida insonlar bilan muloqatga, kasbiy faoliyatga, oilaviy munosabatlarga ta'sir ko'rsatgani singari, kasbiy zo'riqishni paydo bo'lishiga rivojlanishiga va nomayon bo'lishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday shahsga hos bo'lgan individual psixologik, tipologik hususiyatlar ijtimoiy holatidagi farqlar kasbiy zo'riqish namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatishini turli jihatlar qator omillar tamonidan ko'rsatilgan. Bular Asranboyeva. R. Lozurs [2, 122.b]

U. Kenon. G. Sele. Yu. K. SHcherbatik. V. Barisova. mamlakatimida psixologlaridan E. G'oziyev. N. M. Karimova. L. K. To'laganova N. G. Komilova. U. Asranboyeva. L. I. Ergashov [13, 75bet] kabi omillar zo'riqishni turli jihatlarini tadqiq qilganlar. Ulardan bevosita kasbiy zo'riqishni kelib chiqishidagi differensial farqlar masalasi alohida yoritilmagan bo'lib. V. Boriso'va tadqiqotida bu masalaga asosan fiziologik nuqtainazardan izoh berilgan. Pedagoglardagi kasbiy zo'riqish masalasini profilaktikasi va korreksiyasi uchun differensial farqlarni aniqlash dolzarb muammo ekanligidan kelib chiqqan holda tadqiqotimizni ilmiy apparatini keltiramiz.

Tadqiqotimiz maqsadi:

Kasb-hunar kollejlarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarda kasbiy zo'riqishni yuzaga kelishdagi differensial farqlarni aniqlash va o'rganishdir.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz vazifalarni belgilaymiz:

1. Psixologik tadqiqotlarda psixologik zo'riqish muammosini nazariy tahliliga oid ma'lumotlarni umumlashtirish.
2. Kasbiy zo'riqish jarayonini yuzaga keltiruvchi omillarini aniqlash va pedagoglar faoliyatidagi kasbiy zo'riqishlarni tahlil qilish.

3. Kasb-hunar kolleji pedagoglarida kasbiy zo`riqsh holatini namoyon bo`lishi haqida emperik ma`lumotlar to`plash.

4. Kasb-hunar ko`lleji pedagoglarida kasbiy zoriqishdagi differensial farqlarni aniqlash va tavsiflash.

5. To`plangan ma`lumotlar asosida kasb-hunar ko`lleji pedagoglari uchun kasbiy zo`riqish prafilaktikasiga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob`ekti:

Kasb-hunar kollejlarda faoliyat yuritilayotgan pedagog o`qtuvchilar.

Tadqiqot predmeti:

Kasb-hunar ko`lleji pedagoglaridagi kasbiy zo`riqish holatini yuzaga keltirishdagi differensial farqlar.

Tadqiqotimiz metodlari

1. Dastlabki ma`lumotlarni to`plash uchun suhbat va so`rovnoma meto`di.

Temperamentni tashhislovchi G.Ayzeuk testi

2. A.Ra`sulov va L.Tursunovlar tomonidan taklif qilingan,o`qtuvchi shahsini psixologik hususiyatlarini aniqlovchi so`rovnomalar.

3. Statistik tahlil metodlari

Tadqiqotimizning metodologik asosi, O`zbekiston Respublikasi prezidenti. I.A.Karimovning aholini salomatligini saqlash hususidagi g`oyalari,barkamol avlodni tarbiyalashda pedagoglarni ro`lini e`tirof etuvchi fikirlar „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” , „Mehnat kodeksi”singari davlat rasmiy hujjatlari,differensial psixologiya salomatlik psixologiyasi,pedagogik psixologiyasi sohasidagi nazariy malumotlar tadqiqotimizni metodologik asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotning ahamiyati.

Psixologik tadqiqotlarda kasbiy zo`riqish uni keltirib chiqaruvchi omillar varo`riqishni namoyon bo`lishida differensial farqlarni roli hususidagi ilmiy ma`lumotlarni umumlashtirish tadqiqotni nazariy ahamyatini belgilab bersa kasb-hunar kolleji o`qtuvchilarida o`tkazgan imperik tajribamiz,ulada kuzatilgan differensial farqlar

asosida kasbiy zo`riqishni profilaktikasiga oid ishlab chiqqan tavsiyalarimiz tadqiqodni amaliy ahamyatini belgilab beradi.

Tadqiqotning farazi.

Kasb –hunar kolleji pedagoglarida yuzaga keladigan kasbiy zo`riqish holatini belgilab beruvchi omil sifatida shahslar o`rtasidagi differensial farqlarni ya`ni biografik jihatlar va individual tipalogik hususyatlar hisoblanadi.

Ximoyaga olib chiqadigan holatlar.

1.Barcha sotsiogen kasblar qatorida pedagog kasbida ham psixologik zo`riqish kuzatiladi

2.Pedagoglarda kasbiy zo`riqish holatini yuzaga kelishida shahslardagi individual farqlar ahamyatli bo`lib, kasbiy zo`riqish namoyon bo`lishiga juda katta ta`sir ko`rsatadi.

3.Kasbiy zo`riqishni kuzatish va oldini olishda o`qituvchilardagi differensial farqlardan kelib chiqqan holda faolyat yuritish maqsadga muvofiqdir.

1bob.Psixologik tadqiqotlarda kasbiy zo`riqish masalalarini nazariy tahlili.

1.1.Psixologiya fanida hissiy zo`riqish masalalarini yoritish.Insoning qiyin sharoitdagi psixik holatini izohlash uchun tadqiqotchilar turli -tuman tushunchalardan foydalanishdi.

Ular orasida eng ommolashib ketgan tushuncha hissiy zo`riqish atamasidir.

Maskur tushuncha nafaqat psixik balki jismoniy zo`riqish ,charchoq,kabi holatlarni ifodalash maqsadida qo`llaniladi.U ommolashib ketganligi natijasida undan sotsiologiya, bialogiya tibbiyot va pedagogika sohalarida bazi hodusalani ifodalash maqsadida qo`llanila boshlandi.

Hissiy zo`riqishni tushunishdagi noaniqliklar chalkashliklar tartibsizliklar eng avvalo olingan malumotlardgi qaramaqrshiliklar ularni talqin etish hamda taqqoslashda aniq mezonlar yo`qligi natijasidir.Hissiy zo`riqishning psiholo`giyadagi talqini fiziologiyadan olingan psixologik zo`riqishning eng muhim tarkibiy qismini emotsional qo`zg`alish tashkil qiladi.

Ba`zi tadqiqotchilar emotsiya va hissiy zo`riqishni bir-biridan farqlashmaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa hissiy holatlarini emas balki ba`zi emotsionalni gina hissiy zo`riqish holati deb baholaydilar. Bu brinchi navbatta nafrat, qo`rquv va ularni aralash shaklidir. Hissiy zo`riqishni affekt, his- tuyg`u, havotirlik kabi kechinmalar bilan bir qatorda qo`yish an`anaga aylangan. Psixologiyada hissiy zo`riqishni har bir kishida mahsus sharoitda yoki kundalik hayot sharoitlarida paydo bo`lishi mumkin bo`lgan holatlar insonning hulq-atvor va faoliyatiga katta ta`sir etish kuchiga ega hodisa sifatida tushuntiriladi. Ko`pgina mualliflar hissiy zo`riqish tushunchasini qo`llashadi. Psihik zo`riqish va hissiy zo`riqish tushunchasi sinonimi sifatida qaraladi. So`nngi paytlarda bu ikki holat bir-biridan o`zini ifodalanishiga ko`ra farqlanadi degan qarashlar paydo bo`ldi, ya`ni hissiy zo`riqishni psihik zo`riqishning eng yuqori darajasi deb baholanmoqda.

Ba`zi mualliflar tomonidan psixik zo`riqish faoliyatiga salbiy ta`sir ko`satuvchi holat deb qaraladi va zo`riqish tushunchasiga qarama-qarshi qo`yiladi. Amerikalik psiholog olim R. Lazurskiy hissiy zo`riqish va stress tushunchalari mohiyatini to`la anglab olish uchun fiziologik va psixologik stress tushunchalarini farqlashni taklif qiladi. Uning fikricha, mazkur holatlar bir-biridan ta`siretayotgan qo`zg`atuvchining tabiatida paydo bo`lish mexanizmiga va javob reaksiyasi tipiga ko`ra farqlanadi [34, 2bet].

U. Kenon (1927 yil) hissiy zo`riqishlarni tashqi muhitning o`zgarishi natijasida organizmning energetik mabilizatsiyasi kuchayishi endokrin vegetativ harakat va boshqa funktsiyalardagi o`zgarishlarda namoyon bo`ladigan holat deb baholaydi. Uning fikricha hissiy zo`riqishlarning asosiy belgisi fiziologik ko`rsatkichlarning organizm uchun me`yyor hisoblangan darajadan ko`tarilishidir. Kuchli hissiy zo`riqishlardan biri stress hisoblanadi. Stress muammosi psixologiyada nisbatan keng o`rganilgan bo`lib dastlab bu muammo kanadalik olim G. Sel`e (1926 yil) tomonidan tadqiq etilgan. G. Sel`ening fikricha "har qanday normal faoliyat ham u yoki bu darajada hech qanday zarar etkazmaydigan, stressni vujudga keltirishi

mumkin. Stressni mavjudligi emas balki uning kuchli psixik faoliyatida ahamiyatga ega bo'ladi, miqdor va sifatga ko'ra stress turli darajada ta'sir etadi. SHuning uchun stressni bir qancha belgilarini ajratish mumkin. Stress u yoki bu qiyin holatlar guruhiga kirmasada, o'zi ularning boshlanishi uchun asos bo'lib qolishi mumkin. YU.V.SHerbatih tomonida talabalarning o'quv faoliyatidagi stress holati, ayniqsa imtihonlar bilan bog'liq stresslar ham nazariy ham tajriba asosida atroflicha tahlil qilib berilgan. [34,49 bet].

SHahsning hissiy zo'riqishlarining o'rganish muammosiga mamlakatimiz psixologlari tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. E.G'oziyev emotsional holatlarni turllli psihologik yo'nalishi va'killari tomonidan o'rganilganligini tahlil qilib psixik holatlarni tabiati va harakter xususiyatlari haqida o'z qarashlarini ifoda etgan. [32,97 bet]

V.M.Karimova ishlarida psixik zo'riqishlarni inson salomatligiga ta'siri muammosi tadqiq etilib psixik salomatligini taminlashni yo'llari va usullari haqida keng ma'lumotlar keltirilgan [21,7 bet].

G.K.To'laganova tarbiyasi qiyin o'smirlaar muammosini nazaariy eksperimental jihatdan tadqiq etadigan asosiy e'tiborni o'smirlar hulq-atvorida namoyon bo'ladigan psixopatik o'zgrishlar lar fanda vujudga keladigan hissiy zo'riqishlarga qaratadi. N.G.Kamilova tomonidan o'smirlik davrida kuzatilgan turli psihik holatlar shahslararo munosabatlar jarayonidagi emotsional kechinmalaar, tajovvuzkorlik havotirlik kabi zo'riqishlarni o'rganishning psixodiagnostik metodari o'rganilgan va modefikatsiya qilingan. Psixik zo'riqish holati inson tomonidan qiyin sharoitda faoliyatni amalga oshirib va uni samaradorligiga kuchli ta'sir etadigan holatdir. Mazkur ta'sirli vaziyat shaxs hususiyati va motivatsiyaga bog'liqdir. 20-asrning 60 yillarigacha tadqiqotchilaar zo'riqishlarni tahlil qilishda vaziyat va ta'sir etayotgan qo'g'atuvchilar ta'siri bilan bog'langan. Bunday yondashuv tadqiqotchilarni dastlab atrof-muhitning hissiy zo'riqishning vujudga keltirissshga olib keldi. Tajriba o'tkazuvchilarni kutgan natijalari aynan bir hil sharoitda bu omillar

ta'siriga turli individlar o'ziga hos tarzda javob beradilar, bu farqlar nafaqat ta'sirga berilishida balki, kuzatuvlar natijasida ko'rinishi ayon bo'ladi. Ba'zilar da hissiy zo'riqishga nisbatan chidamlilikdan yuqoriligi boshqalarda esa pastligi ayrimlarda faoliyatning yahshilanishi qolganlarida esa barbod bo'lishi darajasida yomonlashishni ko'rsatish mumkin. Tashqi hissiy zo'riqishni keltirib chiqaruvchi holatlar reaksiyasini turli-tumanligi sub'ektning psixologik hususiyatlariga hosdir. Psixik zo'riqishlarning ta'riflashda tashqi qo'zg'atuvchilarning ob'ektiv ta'biy ko'rsatkichlarigina e'tiborga olish etarli emas. Bunda sharoitning o'ziga hos hususiyati bilan bir qatorda fiziologik jarayonlardagi insonni hulq-atvori va faoliyatidagi o'zgarishlarni ham hisobga olish zarur. Psixik zo'riqish holati sub'ektning o'zi uchun ahamiyatga ega bo'lgan sharoitga yonaltirish zarurati sifatida paydo bo'ladi.

N.I. Mayon'ko psixik zo'riqishni "qiyin vaziyatdagi, uni vujudga keltiradigan effektlarga bog'liq bo'lgan psixik holat" deb tariflaydi. Psixik zo'riqishni faoliyatga tasiri vaziyatga, shahs hususiyatlari va uning motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi. T.A. Nemchin psixik zo'riqishlarni ifodalash darajasini quydagicha farqlaydi. [34, 7 bet]

1. SHatli zo'riqish. Maqsadga erishish uchun faoliyatga kirishmaslik osoyishtalik holati.

1. 2. psixik faoliyatni motivatsiya mobilizatsiya qilish somotik funksiyalar faolligini omili, ahloqiy manaviy ruhiy va jismoniy quvvatni ortishi his qilish. Somotik a'zolaridagi ayrim nohush hislar turli darajadagi ijobiy emotsional bo'yoq, ko'tarinki kayfiyat qiyinchiliklarni yengib o'tish, maqsadga erishish yo'lida yuqori natijalarga erishishi bilan farqlanadi. Faoliyatning samaradorligi va mahsuldorligi juda yuqori daraada. Diqqatning asosiy hususiyatlari samaradorligi otadi, qisqa muddatdagi hotira ko'lamini ortadi. Psixologik zo'riqishlar organizimning turli funksional tizimlaridaigi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Ko'pchilik tadqiqotchilar aynan

stress havotirlanish holatini yuzaga keltiradi deb hisoblaydilar. Bundan tashqari havotirlanish va boshqa emotsional holatlarni faollashuvida kognitiv omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Havotirlanish holatini yuzaga keltirishda kognitiv baholash birlamchi bo'g'ini hisoblansa, havfli kognitiv tarzda ortiqcha baholash shunday holatlarni intensivligi faqat jihatdan barqarorligini belgilaydi. Uzoq vaqt davom etadigan yoki tez-tez takrorlanib tiradigan hissiy zo'riqishlar inson harakterini o'gartirib yuborishi, hatto harakter sifatlarini vujudga keltirish ham mumkin. Bu sifatlar introversiya o'z-o'zini ayblash, o'ziga bo'lgan bahoni pasayishi, shubhalanuvchanlik, tajavvuzkorlik va boshqalar. Ba'zan kuchli moyilliklar mavjud bo'lganda bu o'zgarishlar psixopatologiya ko'rinishlari asteniya, nevroz va boshqalarga o'tib normadan og'ishi mumkin. SHunday qilib psixologiya fanida kasbiy zo'riqish masalalari emotsional zo'riqish muammosining qirrasini sifatida tahlil qilinadi va shaxsdagi emotsional zo'riqishni ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

1.2. Pedagoglarda kasbiy zo'riqish jarayoni rivojlanishi va namoyon bo'lishi. Pedagoglik kasbi ham sharaflidir, ham mashaqqatli hisoblanadi. Pedagoglarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularda toliqish holatlari yuz beradi. Toliqish natijasida pedagoglarni bilish jarayonida, harakatlarida zo'riqish kuchayadi. Psixologiya fanida so'ngi davrlarda kasbiy zo'riqish muammosida qiziqish kuchaygan. Mamlakatimiz psixologlari yaqindan beri bu muammoga murojat qilsalarda horij psixologiyasida bu masalani Djekson, Djon, Freydenberger vaboshqalar o'rgangan.

Hozirgi kunda barkamol shahsni tarbiyalash pedagoglarni zimmasiga tushar ekan, shu boisdan ham pedagoglarni sog'ligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog'lom bo'lsagina yosh avlodga yetarli bilim berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mamlakatimiz rahbari o'zining ko'pgina nutqlarida, asarlarida, kadrlar tayyorlash, masalasiga jiddiy e'tibor va diqqati markazini qaratmoqdalar. Bunda O'zbekiston Respublikasi oliy majlisning 1chaqiriq 14 sessiyasida so'zlagan

quyidagi nutqlari ham bunga yaqqol misol bo`ladi. Biz oldimizga qanday vazifa qo`ymaylik, qanday vazifa qo`ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug`ilmasin, gap ohir oqibat baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. [4,54 bet].

Xaqiqatdan ham bu mutahassislarni ish sharoitlari kamfort holatdan yiroq. Diskomfort fiziologik va psixologik harakterga ega. Fiziologik diskomfort gipodinamiya eshitish, ko`rish, va ovoz apparatlariga katta yukni tushishi psixologik va ijtimoiy ta`sirlardir. Zo`riqish quyidagi mehnat faoliyatini bajarish jarayonida ish qobiliyatini pasayish omilidir. U faoliyatga normal reaksiya hisoblanadi. Bunda mehnat yuqori va past toliqtiruvchi bo`lishi mumkin. Zo`riqish quyidagi holatlarda ifodalanadi; qo`zg`lish, tez g`azablanish, g`ashi keladigan, achiqqlanadigan bo`lib qolish, bezovtalik, muskullarni zo`riqish, tananing turli joylaridagi qismlar nafas va yurak urishi tezlashadi, tez toliqish va boshqa individual belgilarni ham namoyon bo`lishi mumkin. Kasbiy zo`riqish-bu uzoq davom etadigan va to`xtamaydigan o`rtacha intensivlikdagi stressorlar ta`sirida paydo bo`ladi. So`nngi tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki kasbiy zo`riqish asosan intellektual-komunikativ kasblarning vakillarida kuzatiladi. Bular o`qituvchilqr, shifokorlar rahbarlar jurnalistlar. Kasbiy zo`riqishni tashhislash va davolash mumkin. Buning uchun muntazam dam olish, mutahassislarni bilan maslahatlashish va stresslar bilan kurashish kerak. Amerika psixologi Freydenberger 1974 yida psixologik amaliyotga "emotsional zo`riqish" terminini kiritgan. Bu tushuncha ish va kollektiv bilan bog`liq bo`lgan stressga olib keladigan salbiy kechinmalarni umumlashtiradi. Asosan insonlar bilan doimiy muloqotda bo`lishga majbur qilgan kasb vakillari zo`riqishga uchraydilar. bu kasallik belgilari quyidagilar;

- ishga va atrofdagi insonlarga befarqlik
- avval ijobiy munosabatda bo`lgan hamkasblariga nisbatan keskin negativ munosabat bildirish.
- o`ziga bo`lgan ishonchni yo`qolishi

Kasbiy faoliyatning psixologik holatlarga ta'siri juda ko'pgina tadqiqotlar tomonidan e'tirof etilgan.[34,20 bet]

Bu ta'sirning namoyon bo'lishi shakllaridan biri bu kasbiy vazifalarning bajarish jarayonidagi emotsional zo'riqishdir. Kasbiy jarayoni turli natijalarga olib kelishi mumkin. Kasbiy faoliyat ob'ektlariga nisbatan salbiy munosabatlarning shakllanishi, o'z faoliyatiga nisbatan befarqlikni paydo bo'lishi va kasbiy faoliyatni qadrsizlanishi hissini paydo bo'lishidir. Ammo eng havotirli va achinarli muammo shundaki bu fenomen qaytarilmasdir, qisqa muddat kasbiy mehnatdan chekinish ham kasbiy zo'riqish ta'sirini vaqtinchalik pasytirib turadi, ammo kasbiy vazifalarni bajarib boshlanishi bilan birga zo'riqish belgilari to'laligicha qayta tiklanadi. Bu holatda kasbiy zo'riqishni profilaktika qilish masalalarini dolzarbligi ortadi. M. Argeyni ma'lumotlariga ko'ra pedagogik faoliyat stressogen kasblardan hisoblanib uni stressga beriluvchanlik darajasi menenjer faoliyatidagi sotuvchi va birja makleri faoliyatlaridan ham stressga beriluvchanlik ustundir. Psixolog kasbini stressogenligi diplomat, kotiba, yurist va bankir kasbidagi stressogenlikdan ustundir[8,67 bet].

P. C. Ergashev o'z ishida pedagog psixolog mutahassislarda kasbiy zo'riqish muammosini tahlil qilish va profilaktika yo'nalishlarini belgilab bergan[13,3 bet].

Asosan psixologik fanlarni o'qitadigan pedagoglar nazarda tutiladi. O'z faoliyatidagi kasbiy va kamchiliklarni tahlili hamkasblar bilan professional muammolarni muhokamasi, ustozlar tajribasini o'rganish biz pedagoglarga psixologlarga faoliyatiga hos bo'lgan kasbiy zo'riqishni xususiyatlarini ko'rsatish imkonini beradi. Bu xususiyatlar amaliyotchi psixolog va pedagog fan o'qituvchilariga ham xos bo'lmagan holatlardir. O'qituvchilar boshqa pedagoglarga qaraganda pedagog-psixologlarga katta talab qo'yadilar va shaxsiy rivojlanish va shaxslararo munosabatlari sohasidagi muammolarni tushunishni kutadilar.

Agarda o'qituvchi pedagog-psixologdan malakali mutahassis sifatida yorda so'rasa, amaliyotchi psixologdan farqli ravishda pedagog-psixolog o'qituvchiga nisbatan munosabatini qayta qurish

muammosiga ro`para bo`ladi. Pedagog psixolog qisqa vaqtda o`quvchidan uzoqlashib uni mijoz sifatida idrok qilish muammosiga ro`para bo`ladi. Hozirgi davrga kelib aniqlanishicha kasbiy zo`riqish sindromi asosan kasbiy vakolatlariga ko`ra o`zgalar bilan ko`p miqdorda intensiv aloqa o`rnata olishga majbur bo`lgan mutahassislarda uchraydi ekan. Emotsional zo`riqishni 3 ta darajasini ajratish mumkin. 1-daraja asosan ixtiyoriy hulq-atvor funktsiyalarini bajarishda namoyon bo`ladi, alohida paytlarni unutib qo`yishi hotiradagi to`htashlar, harakat vahokazo. dastlabki simptomlar unga e`tibor. ularni hazillashib "skeleroz" deb qo`yaverishadi. Mutahassisi harakteri shahsiy hususiyatlari, faoliyat harakteri ruhiy ta`sirga qarab bu darajadagi zo`riqish 3-5 yil davomida shakllanishi mumkin.

2-daraja ishga bo`lgan qiziqish va muloqotga bo`lgan ehtiyoj pasayadi, faoliyat yuzasidan muloqat qiladigan insonlarni ko`rishni istamaydi. Payshanba kuni, juma kuniga o`hshaydi, hafta cheksiz davom etayotganga o`hshaydi, xaftani ohiriga qarab apatiya holatini paydo bo`lishi barqaror somatik kuch va g`ayrat yo`qligi asosan hafta ohirida, kechki vaqtda boshni og`rishi, qattiq chuqur uyqu, jahldor va tez g`ashi keladigan bo`lib qoladi.

3-daraja, shahsni mutloq taliqishi. Ishga va hayotga bo`lgan batamom yo`qoladi, emotsional befarqlik, aqliy to`htash, doimo o`zini kuchsizday sezish. Odam o`zini boshqalardan olib qochadi. Muloqotga intilmaydi. Yolg`ilikka moyil bo`lib qoladi. 10 yildan 20 yilgacha bo`lgan muddat kasbiy zo`riqishni mazkur darajasi hisoblanadi. Tadqiqot tajribasi shuni ko`rsatadiki "kasbiy zo`riqish" simptomlarini va zo`riqishni profilaktikasi bu samaregulyatsiya ya`ni o`z-o`zini boshqarish va o`z-o`zini tiklash. Bu ko`p muloqot va aloqador bo`ladigan kasb mutahassislari uchun o`ziga hos texnika havfsizligidir. Inson organizmi tabiatan komfortga intiladi, yoqimsiz hissiy holatlarni bartaraf qiladi, bu spontan ravishda organizmning ishga tushib ketadigan tabiiy mexanizmlaridir. Mutahassislari esa organizmning emotsional psixik holatlarini boshqaradigan usullarni ongli ravishda ishlatishni taklif qiladilar va aynan mana shu usullar

insonni faol ishtiroki bilan amalga oshgani uchun, o'z-o'zini boshqarish usullari deb nomlandi. Organizmning ta'biy boshqarish usullarini biz albatta, intuitiv ravishda qollab kelamiz bular; uzoq uyqu, mazali ovqat, tabiat va hayvonlar bilan muloqotda bo'lish, massaj, harakat, raqs, musiqa tinglash va hokazo. Afsuski bu usullarni ishda zo'riqish yuzaga kelganda qo'llab bo'lmaydi, ammo ish sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan usullar ham bor, odatda odamlar ulardan cheklanmagan holda foydalanadilar. Shuning uchun quyidagilarga ahamiyat berish kerak.

-siz toliqish va zo'riqishni kamaytiradigan va bo'shashadigan qanday usullarga ega ekanligingizni aniqlang.

-bu usullarni spontan qo'llashdan, ongli qo'llashga o'ting.

-o'z-o'zini boshqarish usullarini mazmunli tahlil qiling.

-o'z-o'zini boshqarish usullarini o'zlashtirib oling.

Zo'riqishni psixologik ko'rinishlariga quyidagilar kiradi;

1. Kuchsizlanishni his qilish inson pedagogik faoliyati vaqtida ham o'zining ish qobiliyati pasayayotganligini sezadi. O'zida ishonchsizlik ishni kerakli tarzda davom ettira olishga kuchi etmasligini sezadi.

2. Diqqat buzilishi bo'lib o'tadi. Insonga diqqatini biror bir joyga to'plash qiyin bo'lib qoladi, uning tez hato yo'nalishda bir ob'ektdan boshqasiga ko'chadi.

3. Sensor sohada buzilish ezgirlikning pasayishi ko'rinishida kuzatiladi. Bular shu faoliyat yuqori darajada ishlatiladigan analizatorlarida paydo bo'ladi. Agar sda odam to'htovsiz o'qisa unda ko'zida yozuv qatorlari to'lqinlana boradi, uzoq vaqt qo'l bilan ishlash taktil va kinestezik sezgilar pasayishiga olib keladi.

4. Motor sferada zo'riqish harakatlar sekinlashishda va tartibsiz boshqalar harakatlarida ularni ritmi buzilishi ko'rinadi.

5. Hotira va tafakkur buzilishi ham ish bilan bog'liq sohada yuzaga keladi. Fikrlash jarayonlari asosan aqliy ishdan toliqishda buziladi, ammo inson jismoniy ishda aqliy mo'ljal olish va tasavvur qilish pasayishi haqida arz qilmaydi.

6. Zo'riqishda qaror qabul qilish o'zini tuta bilishi va o'zini nazorat qilishi pasayadi, matonatlilik pasayadi, irodaviy jarayonlar buziladi.

7. Aktivlik pasayadi, himoya qiluvchi tormozlanish sifatida uyqu paydo bo'ladi. Zo'riqishni keltirib chiqaradigan belgilari uning kuchiga bogliq ravishda ko'rinadi. Zo'riqishning keltirib o'tilgan belgilari uning kuchiga bog'liq ravishda ko'riladi. Odatda zo'riqishning uch bosqichi ajratiladi.

1-bosqichda, zo'riqishning nisbatan engil sezilishi paydo bo'ladi. Mehnat ishlab chiqarish pasaymasligi mumkin yoki bilinmas darajada pasayadi. Sensor va metosferada hotirada va tafakkur jarayonlarida bilinmas darajada diqqat buziladi va faoliyat bajarish jarayonida epizotik bo'lib o'tadi. Buning natijasida ish sifatida amaliy jihatdan pasayishi bo'lmaydi.

2-bosqichda, ishlab chiqarishning pasayishi bilinib boradi va yana ko'proq tashabbuskor bo'ladi. Bu pasayish ishlab chiqarish sohasiga emas, sifatiga ta'sir qiladi. Bu yerda qo'pol buzilishlar diqqat miqyosida sensor va motor harakatlarda bo'lib o'tadi. Ammo irodaviy kuchlar bilan inson ularni komunsiyalashga intiladi, lekin unga to'liq erisha olmaydi.

3-bosqich zo'riqish, toliqishni o'tkir kechirishi bilan harakterlanadi. Bunda mazkur bosqichda tezlashadigan lekin, turgun bo'lmagan, uning kerakli tempini saqlashga insonning urinishlarini aks ettiradi. Ohirida ishchi harakatlar shunday tashkil qilinishi biziladiki inson ishni davom ettirishi mumkin emasligini sezadi bu erda og'ir holatlarni kechiradi. Demak pedagoglarda kasbiy zo'riqish masalalari kompleks tahlil qilinib darjalari kelib chiqish omillari rivojlanish belgilari, korreksiya masalalari nuqtai nazaridan o'rganilgan.

2.1. O'qituvchilarda kasbiy zo'riqishdagi differnsial farqlarni psixologik tajribada o'rganish.

Pedogoglardagi emotsional zo'riqish fenotipini psihologik determehtahtalari. Zamonaviy pedagogik psihologiyani eng dolzarb muammolaridan biri bu o'qituvchilarning psihologik muvozanatidir. Shu masaladan kelib chiqqan holda o'qituvchilarning emotsional zo'riqish fenomenini o'rganish katta ahamiyatga egadir. Emotsional zo'riqish bu ijtimoiy sohada faoliyat yuritayotgan mutahassisni sog'ligi va faoliyatini samaradorligiga

negativ ta'sir ko'rsatadigan omildir. Pedagog faoliyatini M. Borisova tomonidan tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, bu kasbni potensial emotsiogen kasb sifatida ko'rsatishimiz mumkin. O'qituvchi ishida doimo stressga olib boruvchi ko'pgina omillar borligi yuqori emotsional zo'riqish keltirib chiqaradi. Bu faoliyatni quyidagi xususiyatlar yuqori dinamizm katta sur'atdagi harakatlar vaqtni etishmasligi ishdagi yuklamasini ortiqchaligi yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarni murakkabligi, turli ijtimoiy guruhlar bilan alohida bo'lish zarurati va hokazo. Pedagog faoliyatini emotsiogen xususiyatlari o'qituvchilarda zo'riqishni bo'lishi va rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi davrga kelib kasbiy zo'riqish fenomeni ijtimoiy emotsional va aqliy zaiflashish holati sifatida tavsiflanadi. Bu fenomenini jismoniy soha kasblarida kuzatiladi va tarkibiga uchta omilni oladi.

1. Ematsional zo'riqish zaiflashish ortiqcha mehnat nagruskasida paydo bo'ladigan hissiy bo'shliq va chachash odamning emotsional zahiralari sarflangan bo'lib adekvat reaksiyalar bildirmay qoladi.

2. Depersonalizatsiya (insonga nisbatan negativ munosabatni shakillantirish) - atrofdagi odamlarga obekt sifatida munosabatni bildirish ularni salbiy yoki befarq idrok qilish, shu yo'l bilan o'zini kuchli ematsional ta'sirlardan himoya qilish 3. kasbiy yutuqlarni redaksiya o'z yutuqlarini baholay olmaslik o'zini malakasini past va muvofaqqiyatsiz mutahassis sifatida idrok qilish. Zo'riqish fenomenini tadqiqotlari horij psixologiyasida juda kengdir. Ammo bu fenomenini paydo bo'lishi va rivojlanishi mexonizimlari hozirgi kungacha yetarli darajada tadqiq qilingan. Mavjud bo'lgan nazariy yondashuvlar zo'riqish holatiga olib keladigan psixologik omillarni yagona tizimini ajratib imkoniyatini bermaydi. Masalan: inpersenal yondashuv vakillari ematsional zo'riqishni asosiy sababi sifatida mutahassisni kasbiy faoliyat sub'ektlari bilan bo'lgan shahslararo munosabatlari deb hisoblaydilar. Tashkiliy yondashuv vakillari zo'riqishni sabablari sifatida ish muhitini, omillarini belgilaydilar, boshqaruv uslubi, faoliyat ish kunini tartitibi va hokazo. Individual yondashuv

vakillari zo`riqishni shahsni motivatsion va emotsional hususiyatlari bilan bog`laydilar. Shu fikrlardan kelib chikkan holda emotsional zo`riqishni ko`p komponentli dinamik tizim sifatida baholash lozimdir. Emotsional zo`riqish pedagog faoliyatidan kelib chiqadi va unda namoyon bo`ladi. Pedagoglarni emotsional zo`riqishni asosiy determenantlari individual-psixologik va ijtimoiy psihologik omillarni tizimli tahlili natijasida belgilab olindi. Bu esa pedagoglarni ruhiy salomatligini samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Nazariy emperik ma`lumotlarni tahlili emotsional zo`riqishni tashqi ob`ektiv va ichki sub`ektiv omillarni belgilab olish uchun imkoniyat berdi. Zo`riqishni ob`ektiv omillarga faoliyatini o`zi bilan bog`liqdir, sub`ektiv omillar bu mutahassisni individual shahsiy hususiyati bo`lib zo`riqishni paydo bo`lishi va rivojlanishida o`ziga hos ahamiyatga egadir. Kasbiy zo`riqishni ob`ektiv faktori sifatda quyidagilarni ko`rsatishimiz mumkin.

1. pedagogik kollektivdagi salbiy iqlim. Bu iqlim ko`p murakkab bo`lgan munosabatlar tizimi ta`sirida shakillanadi. Va kollektivni o`ziga hos bo`lgan holati va kayfiyatida ifodalanadi. Hodimlar va rahbariyat o`rtasidagi doimiy nizomlar, munosabatlardagi tanglik, jamoada o`zaro qo`llab quvvstlash va jipslikning yo`qligi jamoa a`zolarining individual psixologik hususiyatlariga salbiy ta`sir ko`rsatib, og`ir hissiy kechinmalarga olib keladi va ular to`plashib boraveradi, oqibatda ematsional zo`riqishga olib keladi.

2. pedagogik faoliyatni tashkil qilishdagi kamchiliklar-haddan tashqari reglamentlashganligi, pedagoglarni outonomli o`quv yuklamasini noqulay taqsimlash o`qituvchi mexnatini yetarli darajada rag`batlantrilmasligi, kasbiy o`sisdagi perspektivalarni yuqori maqsatlar marralarni noaniqligi, pedagogni o`quv muassasani boshqarishdagi ishtirogi sub`ektiv omillar sifatida quydagilar belgilanadi.

1. Neyrotizm darajasini yuqoriligi quydagilarda ifodalanadi:

- individuol emotsional barqarorligida
- emotsional labillikda
- nerv-psixik jarayonlarni muvozanatsizligi

-yuqori tasirchanlik

-reaktivlik va teskor ravishda javob reaksiyalarini paydo bo'lishi.

-disstresslarni qabul qilish chegaralarni pastligi.

-negativ ematsional holatlarni ustunligi.

2.Kadriyatlar tizimida nomuvofiqliklarni, borligi bu holat asosan o'qituvchi tamonidan pedagogik faolyatda hayot mazmunini maksadlarini ro'yobga chiqolmaslikda ustuvor hulq-atvor shakillarini yoki o'zi maqul ko'rgan hatti-harakat turlarini namoyon qila olmaslikda o'z shaxsini ahamyatli bo'lgan qirralarini pedagogik faolyatda yuzaga chiqarmaslikda shakillanganli.

3.hulq-atvor va emotsialarning ongli boshqarishni individual tizimini past darajada shakillanganligi. Tashqi va ichki omillarni emperik o'rganilishi emotsional zo'riqishni individual-psixologig vasotsiopsixologik deterninantalari bilan bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Pedagoglarda ematsional zo'riqish fenotipi paydo bo'lishi sabablari va rivojlanish mehonizmlari haqida kompleks va tizimli tasavvurlar hosil qilish uchun hizmat qiladi. Metodik ta'minlash yuqorida keltirilgan omillarni diognostikasi uchun metodik kompleks yaratildi, u quyidagi metodlarni o'z ichiga oldi. Kuzatish, suxbat va ekspert baxolash hujjatlar tahlili, testlash va matematik statistika metodlari. O'qituvchilar psixologik osoyishtalikni va maktab jamoalardagi ijtimoiy – psixologik iqlimni xolatini aniqlovchi asosiy metod bu kuzatish bo'ldi. O'qituvchilarni emotsional holatini hamkasblarga va o'quvchilarga mexnatga munosabatini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari suhbat yordamida o'qituvchilarning psixologik holatiga vamexnat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham aniqlandi. Ekspert baholash yordamida maktab jamoasidagi ijtimoiy – psixologik iqlimni o'bektiv holati va maktablardagi tashkiliy faoliyatni tavsifiga baho berildi. Ekspertlar sifatida ta'lim departamentining metodisi, o'quv muassasalarini ma'muriy xodimlari, maktab psixoglari va pedagoglari faoliyat yuritadilar. Turli kollejlarda pedagoglar faoliyatini tashkil qilish xususiyatlarini o'rganish uchun quyidagi xujjatlar tahlil qilindi. Kollej nizomi, ichki tartib qoidalari, mexnat shartnomasi,

lavozimlarini yo'riqnomalari kvalifikatsiya tavsiflari, buyruqlar popkasi premyalar haqidagi qoidalar mukofatlar jurnali, pedagog xodimlarni attestatsiyasi haqidagi xujjatlar, dars jadvali, ish vaqtini xisoblash tabeli, tarifikatsiya vedomisti, maktabni ichki ta'lim – tarbiya jarayonini nazorat qilish rejasi, pedagoglarni va ma'muriyatni ish rejasi pedagogik va ma'muriy kengashlarni protokollari tahlil qilindi. Quyidagi psixodiagnostik vositalar qo'llanildi “Psixik zo'riqish savolnomasi” – zo'riqish tajribadagi xususiyatlarni diagnostika qilish uchun shaxsiy individual xususiyatlarni diagnostikasi uchun Ayzenkning “Nerotizm.Ekstraversiya.Psixotizim so'rovnomasini moslashtirilgan varianti, emotsional qo'zg'aluvchanlik shkalasi” – neotizm xususiyatini sifat jihatdan baholash uchun g'azab tortinchoqlik va o'z emotsialarini nazorat qila olmaslik “O'z xulq – atvorini boshqarish uslubi” so'rovnomasi shaxsni o'z – o'zini boshqarish ko'nikma va malakalarini rivojlanganligi diagnostikasi uchun bu ko'nikmalar regulatyasini asosiy jarayonlarni qamrab oladi bular : rejalashtirish modellashtirish, programmalashtirish, natijlarni baholash va shaxsiy regulatsiya xususiyatlarini egilluvchanlik va mustaqillik , M.Ronichning “Qadriyatlar yo'nalganligi so'rovnomasi” pedagoglarni qadriyatlar yo'nalishini o'rganish uchun O.S.Mixayilova.O.Yu.SHamtar tomonidan tklif qilingan “mexnat jamoalarida ijtimoiy – psixologik iqlimni emotsional xulqiy va kognitiv komponentlarini o'rganish” uchun M.V.Barisovani “pedagogik faoliyatni tashkil qilish xususiyatlari” deb nomlangan mualliflik metodikasi ham qo'llanildi. Maskur metodika pedagoglik faoliyatini tashkiliy omillarini tahlil qilishga qaratilgandir. Muallif bu metodikani maqsadga muvofiq bo'lgan vositalar yo'qligi uchun ishlab chiqqan.Nazariy ma'lumotlarga tayangan holda pedagogik faoliyatni xisobga olib, M.V.Barisova pedagog uchun ahamiyatli bo'lgan ematsiogen xarakterga ega bo'lgan oltita faktorni ajratgan:

1. Faoliyatni reglamentatsiya xususiyatlari.
- 2.Pedagogni avtonomik darajasi.
- 3.O'quv mexnat yuklamasini taqsimlash.

4.Kasbiy o'sish imkoniyatlari.

5.Mexnatni rag'batlantirish xarakteri.

6.Pedagogni o'quv ta'lim muassasini boshqarishdagi ishtirokini xarakter.

Tahlil to'liq bo'lishi uchun har bir faktor bir qator ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.Bu metodikani qo'llash orqali pedagoglar faoliyatini tashkiliy xususiyatlarini pedagog mexnatidagi emotsional komponentga ijobiy yoki salbiy ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotlarda olingan emperik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun dastlabki statistik tahlil t – student nizomi korreksion va faktorli tahlil kabi matematik statistik metodlari qo'llaniladi.

Tadqiqotni borishi.

Tadqiqotni birinchi bosqichida xujjatlarni tahlil va ekspert so'rovlar orqali tekshiruvlar uchun kollejlari saralandi.Ekspertlar shahar kollejlari jamoalarini ijtimoiy – psixologik iqlimi va oqituvchilar ishini tashkiliy sharoitlarini baholadilar. Xujjatlarni tahlili esa har bir manbadagi ta'lim –tarbiya jarayonini tashkil qilish xususiyatlarga o'bektiv baho berish imkoniyatini yaratdi.Ikkinchi bosqichda tanlangan kasb – hunar kollej oqituvchilarni tashxisdan o'tkazdik. Har bir o'qituvchini ematsional zo'riqish darajasini individuall psixologik ijtimoiy psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun yuqorida tavsiflangan metodikalar kompleksidan faoydalandik. Tadqiqotlar 10 – 15 kishilik guruhlarda o'tkazildi. Ixtiyorilik tamoiyili va testlash jarayoniga tegishli bo'lgan tamoiyllarga rioya qilindi. Guruhlarda erkinlik muhiti yaratildi M.V.Barisova o'z tadqiqotlarini Rossiya federatdiyasining Yarslov viloyatida o'tkazgan. Biz tadqiqotlarda Urganch shahridagi "Tadbirkorlik va servis" Bog'ot tumanidagi "Maiyishiy xizmat" va Xiva tumanidagi "Pedagogika" kasb – hunar kollejlari oqituvchilari ishtirok etdilar.Sinaluvchilarni yoshi 21dan 55gacha asosan ayollar bo'lib katta qismini fan nomizodlari,shu bilan birga erkaklar ham ishtirok ettilar.

Natijalar tahlili.

Barcha kasb – hunar kollejlari pedagoglarida professional motivatsiya komponenti ustun bo'lgan emotsional zo'riqish holati kuzatildi, yuqori nevrofizatsiya darajasi namoyon bo'ldi. SHaxs uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlarni professional faoliyatda namoyon qila olmaslik holati vao'z – o'zini boshqarish malakasi va ko'nikmalarini rivojlanganligi tashxislandi. Bundan tashqari ijobiy ijtimoiy – psixologik iqlim va tashkiliy faoliyatni qoniqarli xarakteri aniqlandi. Yuqori va past darajadagi emotsional zo'riqish namoyon qilgan pedagoglar guruhini o'zaro taqqoslash zo'riqish kabi fenomeni determentalarini aniqlash imkoniyatini beradi. Olingan ma'lumotlar t-kreteri styudenti orqali taqqoslandi. Terminal va turumental qadriyatlar o'rtasidagi farq ($t=0.99$) statistik ahamiyatli ko'rsatgich ekanligi aniqlandi. Neyrotizm va sifat xarakteristikasini o'rtasida ham ahamiyatli farqlar kuzatildi. Bu tortinchoqlik va xisiotlarni nazorat qila olmaslik, o'z – o'zini boshqarish modellashtirish va egiluvchanlik komponentlari bo'yicha katta farqlar kuzatildi ijtimoiy – psixologik iqlimni emotsional komponentlarida mexnatni rag'batlantirish bo'yicha natijalarda katta farq bo'lgan. Statistik jihatdan zezilarli farqlar ($t=0.95$) o'z – o'zini boshqarish namoyon bo'lgan pedagogik faoliyatni tashkil qilish xarakteristikasi avtonomlik, o'quv yuklamasini taqsimlash kasbiy rivojlanish va boshqaru vda ishtirok etish kabi ko'rsatgichlarda ijtimoiy – psixologik iqlimni xulq – atvvor komponenti bo'yicha ham statistik nuqtai nazardan ahamiyatli farqlar kuzatilgan. Taqdim qilingan ijtimoiy – psixologik individuall omillar yuqori darajadagi zo'riqishga olib keldi. SHu bilan birga shaxsda yuqori darajadagi neyrotizm va qadriyatlar tizimidagi nomuvofiqliklar kuzatiladi. Karreksion tahlil natijasida emotsional zo'riqishni individuall psixologik va sotsiol determinantalari o'rtasida aloqalar ham aniqlandi. Bu holat quyidagicha o'z ifodasini topdi.

*emotsinal zo'riqish va neyrotizm o'rtasida ahamiyatli darajadagi korreksiya kuzatildi ($r=0.71$)

* emotsinal zo'riqish va emotsional qo'zg'alish o'rtasida ham korreksiya aloqalari bor. ($r=0.52$)

* emotsional qo'zg'alishni sifatleri va umumiy emotsionallik o'rtasida ham korreksiya mavjud. ($r=0.44$)

*tortinchoqlik bilan ($r=0.40$) emotsiolarini boshqara olmaslik bilan

* emotsional zo'riqish va modellashtirish komponentlari o'rtasida ham korreksiya bog'liqligi bor ($r=0.42$)

* emotsional zo'riqish va ishni tashkil qilish xarakteriskalari bilan ham korreksiya quyidagicha bo'lgan ($r=-0.23$)

* emotsional zo'riqish va eksroversiya o'rtasidagi korreksiya ($r=0.19$)

Emotsional zo'riqish va o'z – o'zini boshqarish komponentlari o'rtasida teskari korreksiya aloqalari kuzatiladi. Agarda pedagogda faoliyatli tashqi va ichki sharoitlari haqidagi tasavvurlar rivojlangan bo'lsa o'z xarakati va xulq – atvori to'g'ri rejalashtira olsa o'zgaruchan ichki va tashqi sharoitlarga qarab emotsional zo'riqish darajasi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi Toshkent 1992 – yil. 40 – bet.
2. “Ta’lim to’g’risidagi qonun”.O'zbekiston nashriyoti. 1997 – yil 106 – bet.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.O'zbekiston nashriyoti. 1997 – yil 106 – bet.
4. Karimov.I.A. “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent 1997 – yil. 62 – bet. “O'zbekiston” nashriyoti.
5. Karimov.I.A. “O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. Toshkent 1992 – yil 78 – bet “O'zbekiston” nashriyoti.
6. Karimov.I.A. “Yuksak manaviyat yengilmas kuch Toshkent. 2008 – yil. 173 – bet. “O'zbekiston” nashriyoti.
7. Asronboyeva M. O'quv faoliyatiga moslashi hissiy zo'riqishning oldini olish vositasi sifatida 178-180 bet. Psixogigiyyena Psixologiya XXI asr boshlarida. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2012 – yil “O'z MU” nashriyoti.
8. Asronboyeva M. Psixologik tadqiqotlarda hissiy zo'riqishlar muammosining o'rganilganligi. “XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari” Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. Toshkent 2012 – yil. 122-124 bet. “O'z MU” nashriyoti.
9. Avtamonova K. Psixologichiskie faktori zdarovago nardaniya va zrelot. Vostraste. XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy anjuman materiallari. Toshkent. 2012 – yil 505-507 bet. “O'z MU” nashriyoti.
10. Dovruskin M.E. “Sotsiano psixologicheskiy partnet vuzashkogo pedagogika “Oseuti”, Kiev 1994 – yil 100 – bet.
11. Davletshin.M.G. “Umumiy psixologiyasi” Toshkent Tosh DPU. 2002 – yil 75 – bet .
12. Elvuv.O.P. Konstruktivnoye minologiyasi psixodiagnostika lignosti. Pekov. 1994 – yil “A.S.T.” 280 l.
13. Ergashev P. “Pedagog – psixologlarni kasbiy zo'riqish masalalari “Psixologiya asostatsiyasini anjuman materiallari. Toshkent 2008 – yil “Tosh DPU” nashriyoti.

14. Husanbekova A. Ruhiy salomatlik muammosi rus psixologlari talqinida psixologiya XXI asr boshlarida Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari “O’z MU” nashriyoti. Toshkent 2008 – yil 239-242 bet.
15. Karamyan M.X. Karamen D. sotsialno psixologicheskiy razxod issledovaniy zavorova. XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari. Toshkent 2012-yil “O’zMU” nashriyoti 240-242 bet.
16. Mahmudova B. Shaxsning xavotirlanishi psixologiyada tadqiqot ob’ekti sifatida “Talqin” va “Taxlil” 217-200 bet.
17. 18. Maqsudova M. Qurbonova Z. Umumiy psixologiya” Namangan 2002 – yil.
18. Maqsudova M. Qurbonova Z. Umumiy psixologiyasi” Namangan 2002 – yil.
19. Musinov S.M. “Raxbar psixologiyasi” Samarqand 2002 – yil.
20. Nazarov A.S. Karimova D. Adaptatsiya psixologik muammo sifatida talqin va tahlil 217-220 bet.
21. Nurullayeva B. Rajabov X. Yoqubova SH. Ta’lim tizimida psixologiyaga masalalari XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy anjuman materiallari Toshkent 2012 – yil 466-468
22. Nurullayeva B. O’rozboyeva D. Bechonov X. Pedagoglarda kasbiy zo’riqish holatlarini o’rganish. XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari. Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari Toshkent 2012 – yil 165-164 bet.
23. Platonova K. Golebov R. “Psixologiya” Toshkent o’qituvchi. 1982 –yil “Sharq nashriyoti” 264-bet.
24. Psixologik terminlar lug’ati. Toshkent O’zbekiston. 2008 – yil 100-bet.
25. Rajabov X. Razzoqova P. Xalilova F. Aqliy charchashning hayot faoliyatiga ta’siri va uni profilaktikasi. Toshkent “O’z MU” nashriyoti 167 – bet.
26. Rasulov A. Psixodiagnostika Toshkent “Muntaz so’z” 2010 – yil. 152-bet.
27. Ta’lim tizimini boshqarish. Urganch 2009 Uslubiy qo’llanma.
28. Xayitova F. Xalilova N. Umumiy psixologiya “Toshkent” “TDPU” 332-bet. 2010 – yil.
29. G’ozdiyev E. “Psixologiya” “Toshkent Sharq” nashriyoti. 2008 – yil.

30. G'oziyev E. "Oliy maktab psixologiyasi" Toshkent "Muntoz so'z" 117-bet. 2010 – yil.
31. G'oziyev E. Mametov M. "Psixologiya" Toshkent "Muntoz so'z" 2010 – yil.
32. Cho'riyev R. "Vaziyatli yondashuv ta'lim samaradorligini oshirish omili. Psixologiya XXI asr bashlarida. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari "O'zMU" nashriyoti 224-227 bet.
33. Internet ma'lumotlari.

www.Ziyonet.uz

www.ilm.uz

www.Megabook.uz

www.google.uz